

Psychological Readiness of 6–7-Year-Old Children for School in Preschool Educational Institutions

Mushtariy Alijonova

Student of Group 22-FU

Turan International University

Abstract

This article explores the psychological preparation of 6-7-year-old children for school education. The author analyzes the social and psychological changes during the transition from preschool to primary school, as well as the core components of school readiness: motivational, intellectual, emotional, and social maturity. The article emphasizes the role of play activities, the importance of speech and memory development, and concludes that the overall developmental level of a child as an individual is the foundation for academic success.

Maktabgacha ta'lim muassasasida 6-7 yoshli bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi

Alijonova Mushtariy Sherali qizi

Turan International Universtety 22-FU guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada 6-7 yoshli bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik darajasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Muallif bolaning bog'chadan maktabga o'tish davridagi ijtimoiy va psixologik o'zgarishlari, shuningdek, maktabga tayyorgarlikning asosiy komponentlari: motivatsion, intellektual, emotsional va ijtimoiy yetuklik masalalarini tahlil qiladi. Maqolada o'yin faoliyatining o'rni, nutq va xotira rivojlanishining ahamiyati hamda bolaning shaxs sifatidagi umumiy rivojlanish darajasi o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatning asosi ekanligi asoslab berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы формирования психологической готовности детей 6-7 лет к школьному обучению. Автор анализирует социальные и психологические изменения в период перехода ребенка из детского сада в школу, а также основные компоненты готовности к школе: мотивационную, интеллектуальную, эмоциональную и социальную зрелость. В статье обосновывается роль игровой деятельности, значение развития речи и памяти, а также подчеркивается, что общий уровень развития ребенка как личности является основой успеха в образовательном процессе.

Kalit so‘zlar / Ключевые слова / Keywords

- **O‘zbek tilida:** Maktabga tayyorgarlik, psixologik yetuklik, 6-7 yoshli bolalar, bog‘cha, motivatsiya, intellektual rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, o‘yin faoliyati, nutq o‘stirish.
- **На русском:** Подготовка к школе, психологическая зрелость, дети 6-7 лет, детский сад, мотивация, интеллектуальное развитие, социальная адаптация, игровая деятельность, развитие речи.
- **In English:** School readiness, psychological maturity, 6-7-year-old children, preschool, motivation, intellectual development, social adaptation, play activity, speech development.

Maktabga borish bolalarning hayotida juda muhim va katta voqea hisoblanadi. Maktab hayoti ularga yangi dunyo eshiklarini ochadi va shu davrda bolalarning asosiy faoliyati tubdan o‘zgaradi. O‘qishga tayyor bo‘lish uchun bolalarda barqaror diqqat, o‘tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va tartib-intizom kabi xislatlar shakllanishi zarur. Bog‘chadan maktabga o‘tish jarayoni nafaqat yangi o‘qish faoliyatini boshlash, balki kattalar bilan munosabatlarda ham sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalarning bog‘chaga o‘tish jarayoniga qaraganda ancha murakkab va bosqichma-bosqich kechadi.

Shuni ta'kidlash joizki, bola maktabga o'tgach, uning ijtimoiy holatida ham muhim o'zgarish yuz beradi. Endilikda u yangi jamoaga qo'shiladi, o'qituvchi va tengdoshlar bilan muntazam muloqot qiladi, bu esa uning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bola sinfdagi o'z o'rnini, ijtimoiy roli va majburiyatlarini anglab boradi. Shu bilan birga, sinfdoshlar bilan munosabatlar o'rnatish, darsdan tashqari faoliyatlarda qatnashish uning ijtimoiy tajribasini kengaytiradi hamda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Bog'cha ta'limining asosiy vazifalaridan biri – bolalarga har tomonlama tarbiya berib, ularning rivojlanish darajasini maktabda o'qish uchun yetarli darajada tayyorlashdir. Shu bilan birga, bog'cha bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish qobiliyatini oshirish, o'z fikrini erkin ifodalash, tengdoshlar bilan do'stona munosabatlarni shakllantirish va jamoaviy faoliyatlarda qatnashishga o'rgatadi. Shu muhitda bola ilk bilimlarni egallaydi, nutqini rivojlantiradi, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'z navbatida, bog'cha tarbiyachilari bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularni yangi vaziyatlarga tayyorlaydi va o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Shu tarzda, bog'cha maktab ta'limiga birinchi qadam bo'lib xizmat qiladi va bolalar keyinchalik maktab hayotiga muvaffaqiyatli kirib borishi uchun poydevor yaratadi.

Bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlashda ularning nutqini rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. Shu sababli, katta guruh bolalarini

maktabga tayyorlash jarayonida ona tilini chuqur o'rganishlariga, so'z boyligini oshirishga, to'g'ri talaffuz va grammatik jihatdan to'g'ri jumlar tuza olishga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalarning tashqi olam haqidagi tushunchalari nutq orqali kengaytiriladi va boyitiladi. Shu yoshdagi bolalar uchun makon tushunchalari (yaqin, uzoq, o'ng, chap, katta, kichik), shakllar (dumaloq, doira), vaqt haqidagi tasavvurlar hamda axloqiy tushunchalar (yaxshi, yomon, rost, yolg'on, uyalish) paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Bundan tashqari, bola jismoniy jihatdan ham jadal rivojlanadi: nerv tizimi, miya, mushaklar va qo'llar yanada kuchayadi. Bu davrda bolaning xarakteri va o'ziga xos individual xususiyatlari yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Ammo, barcha bog'chalardagi maktab yoshiga to'lgan bolalar maktabda o'qishga birdek tayyor bo'la olmaydilar. Ayrim bolalar yangi muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ularda o'qishga zarur xususiyatlar yetishmaydi. Shunda paydo bo'ladigan savol shuki, bolani psixologik jihatdan maktabga tayyor deb qachon hisoblash mumkin?

Ba'zi psixologlarga ko'ra, bola maktabda o'qish uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir ancha tasavvurlarga ega bo'lishi, aqliy jihatdan yetilgan bo'lishi kerak. Ammo hayotda shunday holatlar uchraydiki, ko'p tasavvurga ega bo'lsa-da, yozish va o'qishni biladigan ayrim bolalar maktabdagi talablarga javob bera olmaydilar. Aksincha, kamroq tasavvurga ega bolalar ham maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari mumkin. Shu sababli, maktabdagi o'qish jarayoni uchun aqliy rivojlanish darajasi muhim bo'lsa-da, bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi yagona omil emas.

Yosh omili ham ahamiyatga ega. Boshqa olimlar esa, bolaning o‘qishga tayyorligini aniqlashda iroda xislatlarining yetilganligi muhimligini ta’kidlaydilar. Ammo bu fikr ham bir tomonlama yondashuv bo‘lib, holatni to‘liq yoritmaydi.

Yetti yosh – go‘daklikdan chiqish, shaxs sifatida shakllanish bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrdan boshlab bolalarda o‘z-o‘zini anglash, shaxsiy identifikatsiya boshlanadi. Shu sababli, 7 yoshga to‘lgan bolalarni tizimli ravishda maktabga o‘qishga o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. K.D.Ushinskiy fikricha, bolaning maktabdagi o‘qish faoliyatiga tayyorligi uning psixik jarayonlarining rivojlanishidan ko‘ra, shaxs sifatida umumiy rivojlanish darajasi bilan aniqlanadi.

6-7 yoshdan boshlab bolalarda shaxsiy ong shakllanadi. Bolalar o‘zlari yashayotgan ijtimoiy muhitdagi o‘rinlarini aniqlashga, kattalar bilan yanada to‘liq va yaqin munosabatlar o‘rnatishga intiladilar. Katta guruhdagi bolalar maktabga o‘tishdan ancha oldin maktab haqidagi tasavvurlarini shakllantira boshlaydilar, maktab haqida ko‘p savollar berib, maktab hayotiga qiziqishlari oshadi. Maktabga borish vaqtlarini aniq bilishni xohlashadi, agar do‘stlari maktabga o‘tib ketgan bo‘lsa, ularni ko‘rib hayratlanadilar va o‘zlarini bog‘chada qolganidan alamdon his qiladilar. Katta yoshdagi bolalarning maktabga intilishi ularning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi yangi o‘rinlarni egallash istagining ifodasidir.

Shunday qilib, bolaning maktabga tayyorligi uning ijtimoiy etuklik darajasining muhim bosqichidir. Lekin bola bu bosqichga o‘z-o‘zidan

ko'tarilmaydi, uni maktabga tayyorlash jarayoni bog'cha va oila tomonidan amalga oshiriladigan to'liq va tizimli tarbiya ishi orqali ta'minlanadi.

Yetti yoshga to'lgan bola jismoniy jihatdan sezilarli o'sadi, o'zini boshqarish, nojo'ya harakatlardan tiyilish, xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga harakat qiladi. U o'z kuchiga ishonadi, mehnat qilishga qodir bo'ladi, masalan, bolalar bog'chasida navbatchilik vazifasini bema'lol bajara oladi, jamoada yashash qoidalariga moslashadi. Bolaning turmush tajribasi ortadi, ko'plab narsalarning nomlarini va ularni qanday ishlatishni bilib oladi. Xotirasi va tasavvurlari rivojlanadi, ko'plab she'r va hikoyalarni yodlab oladi. Nutqi yetarli darajada o'sadi, u o'z o'rtoqlari va kattalar bilan erkin va to'liq muloqot qila oladi.

Yetti yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari ham rivojlanadi, xayrixohlik, rahmdillik, do'stlik kabi ijobiy xislatlar mustahkamlanadi va shu yoshda bolalar jamiyatga faolroq moslashishga tayyor bo'la boshlaydilar. Shu bilan birga, ular o'z his-tuyg'ularini boshqarishni, muammolarni hal qilishda yordam so'rash yoki o'zaro hamkorlik qilishni o'rganadilar. Bu yosh davrida bolalarning atrofdagilarga mehr-muhabbat va hurmat bilan qarashi kuchayadi, shuningdek, ular o'z do'stlarini qadrlashni va bir-birini qo'llab-quvvatlashni o'zlashtiradilar. O'z navbatida, ota-ona va pedagoglar tomonidan berilayotgan ijtimoiy-axloqiy tarbiya bu ijobiy sifatlarning yanada rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bois, yetti yosh davri bolaning shaxsiyati va ijtimoiy munosabatlarining shakllanishida muhim ahamiyatga

ega bo‘lib, uni jamiyatning faol va mas’uliyatli a’zosi sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Bu yoshda o‘yin juda katta ahamiyatga ega. O‘yin jarayonida bola yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi, atrof-muhitni anglaydi va o‘zining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘yin bolalar uchun bir necha jihatdan muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi: ularning his-tuyg‘ularini boshqarishni, bir-biriga yordam berishni va jamoaviy hamkorlikni o‘rganishga imkon yaratadi. O‘yin orqali bolalar o‘zaro muloqot qilish, nizolarni hal qilish va shaxsiy chegaralarni aniqlashni o‘zlashtiradilar. Bu esa ijtimoiy rollarni tushunish va jamiyat hayotiga moslashishni osonlashtiradi. Shu sababli, o‘yin faoliyati bolalarning nafaqat aqliy, balki ma’naviy va axloqiy jihatdan ham rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi.

Yetti yoshga to‘lib, maktabga chiqqan bolalarning psixik rivojlanishi bundan keyingi ta’lim-tarbiya jarayonida, ya’ni maktab va oilada davom etadi. Talimga psixologik tayyorgarlik deganda bolaning maktab talablari uchun tayyorligi tushuniladi. Bu tayyorgarlik uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanganligini anglatadi.

Shu yoshdagi bola idrokining o‘tkinligi, ravshanligi va aniqligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Uning qiziquvchanligi, diqqatini uzoq muddat saqlay olishi, tafakkurining rivojlanganligi maktabga tayyorlanish darajasini ko‘rsatadi. Bola diqqatini turli o‘yinlarda, rasm chizish va qurish mashg‘ulotlarida, loy va plastindan o‘yinchoqlar tayyorlashda,

boshqalarning nutqini tushunishda, matematik amallarni bajarishda va hikoya tuzishda namoyon qiladi.

Bola endi bevosita kattalar rahbarligida emas, balki o‘zining xohishi bilan kerakli ma’lumotlarni to‘plashga harakat qiladi, aniq maqsad va vazifalar qo‘yadi. Bu uning xotirasi rivojlanganini ko‘rsatadi. U she’r, hikoya va ertaklarni ko‘p takrorlab yod oladi, talim jarayonida esa yod olishning samarali usullaridan foydalanadi. Birinchi sinf o‘quvchisi ko‘pincha obrazli xotiraga suyanib biladi, ammo bu so‘z-mantiqiy xotirani inkor qilmaydi. Aksincha, so‘z-mantiqiy xotira talimda juda zarur.

Ta’limga psixologik tayyorlik deganda – bolaning maktab ta’limi sharoitiga moslashish va muvaffaqiyatli o‘qish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy, ijtimoiy va aqliy xususiyatlar majmui tushuniladi. Bu tayyorlikning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

Motivatsion tayyorlik – bolaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi, bilim olishga intilishi, maktabga borishni xohlayotganligi.

Aqliy (intellektual) tayyorlik – bolaning tafakkur, eslab qolish, e’tibor va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari.

Emotsional tayyorlik – bolaning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, o‘qituvchi va sinfdoshlar bilan yaxshi munosabat o‘rnatishga tayyorligi.

Ijtimoiy tayyorlik – bola jamoadagi tartib-qoidalariga rioya qilish, boshqalarga mehribon bo‘lish va hamkorlik qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi.

Umuman olganda, ta'limga psixologik tayyorlik bolaning maktab muhitiga to'laqonli moslashib, ijobiy munosabatlar o'rnatish va dars jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Shu jihatdan, maktabga kirishdan oldingi tarbiya va rivojlanish jarayonlari ham bu tayyorlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning xotirasi qiziqarli, ajoyib va taajjub uyg'otadigan ma'lumotlar va hodisalarni puxta eslab qolish, saqlash va esga olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu paytgacha ular asosan kattalar nazorati ostida ma'lumotlarni o'zlashtirgan bo'lsa, endi o'z irodasi va xohishi bilan zarur ma'lumotlarni to'plashga, aniq maqsad va vazifalar qo'yishga harakat qiladi. Bu faoliyat bolalarning xotirasi rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bois, she'r, hikoya va ertaklarni eslab qolish jarayonida ularni ko'p marta takrorlash va yodlashning samarali usullarini qo'llash ta'lim jarayonida bolalarga katta yordam beradi. Shu yo'l bilan bola xotira, nutq va tafakkur ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi.

Birinchi sinf o'quvchisi odatda bilish faoliyatini, asosan, obrazli xotira yordamida tashkil etsa-da, bu boshqa xotira turlari, masalan, so'zli va mantiqiy xotiralarni ham chetga chiqarmaydi. Shu bilan birga, bola yangi ma'lumotlarni eslab qolishda turli xotira turlaridan birgalikda foydalanadi. Masalan, she'rlarni yodlashda so'zli xotira, o'yin vazifalarini bajarishda esa obrazli va harakatli xotira bir-birini to'ldiradi. Shu tarzda, bola maktab sharoitida eslab qolish va bilish jarayonini yanada samarali tashkil qilishga

o‘rganadi va bu o‘z navbatida uning umumiy rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Maktab yoshidagi bolaning nutqi ancha rivojlanib, yanada tushunarli va mantiqiy bo‘ladi. U o‘z fikrlarini aniq ifodalay oladi, boshqalar bilan samarali muloqot qiladi hamda turli vaziyatlarga moslashib so‘zlashishni o‘rganadi. Shu davrda nutqining ifodali va boy shakllanishi, fikr almashishdagi faolligi uning umumiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bola eshitgan va ko‘rgan ma'lumotlarni tushunadi, o‘zidagi axborotlarni aniq va tartibli tarzda bayon eta oladi. Shu bilan birga, aqliy faoliyat operatsiyalarini — taqqoslash, oydinlashtirish, umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish kabi qobiliyatlarni faol qo‘llaydi. Bu esa uning ta‘lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta‘minlaydi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bola manosi tushunarli tushunchalarni manosiz so‘zlarga qaraganda tezroq va mustahkamroq yod oladi. Maktabga tayyorgarlik bosqichidagi bola nutqi grammatik qoidalarga mos, mantiqan izchil, ifodali bo‘ladi. U eshitgan va ko‘rganlarini tushunadi, o‘z fikrlarini tartibli bayon eta oladi, aqliy faoliyat operatsiyalarini qo‘llaydi — taqqoslaydi, tahlil qiladi, umumlashtiradi, xulosa chiqarishga harakat qiladi.

Olti yoshli bolaning psixik tayyorgarligi haqida gapirganda, faqat psixik rivojlanish darajasi emas, balki uning turmushi, salomatligi, uslubiy tayyorgarligi va oddiy ko‘nikmalari ham hisobga olinishi zarur. Bu omillar bolaning maktabga psixologik tayyorgarligining obektiv tomonlarini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаева Н.Ш. Мактабгача таълимни вариатив ёндашув асосида такомиллаштириш// пед.ф.б.ф.д. (PhD) диссертация автореферати – Тошкент: МТТРМҚТМОИ, 2019. – 25 б.
2. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А., Халикова Г.И. История педагогики (Учебник). 2017, 258 стр.
3. Абдурахимова Д.А. Халқ оғзаки ижоди намуналари воситасида мактабгача ёшдаги болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш тизимини такомиллаштириш // пед. фан. док.... дисс. – Т., 2020. –278 б.
4. Аверин С.А., Коновалова Т.Г., Маркова В.А. Реализуем ФГОС ДО: моделирование развивающей предметно-пространственной среды современной дошкольной образовательной организации. – М., 2014.
5. Аграшенков А. Психология на каждый день: советы, рекомендации, тесты. М.: Вече-Аст, 1997.
6. Азизова З. Ф. Мактабгача катта ёшдаги болаларда кўғирчоқ театри воситасида ахлоқий-эстетик сифатларни шакллантириш // Автореферат. – Ташкент: // “Янги нашр”, 2020. – 52 с.